IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

VOLUME 6, ISSUE 1, 2023

INNOVATSION MUHITNI TAKOMILLASHTIRISHDA OILANING O‘ZARO HAMKORLIGi

Odasheva Feruza Mirzabahramovna

Adu o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada oilada yoshlar g‘oyaviy-siyosiy madaniyatni shakllantirish tizimiga innovatsion yondashuv muhim ijtimoiy masala ekanligi, oilaning muqaddasligi, ota-ona va farzand burchi, oila a’zolarining o‘zaro muomala-munosabatlari, oilada avlodlar zanjirini davom ettirish kabi munosabatlar bilan birga, eng muhim masala – yoshlarga g‘oyaviy-siyosiy bilim berish jarayonida ularning fan-texnika yutuqlarini anglab yetib, jamiyat va oila rivojiga o‘z hissasini qo‘shadigan, o‘z huquq va burchlari, mas’uliyatni anglaydigan salohiyatli inson bo‘lib yetishishlari zaruriyati haqida so`z yuritiladi.

KALIT SO`ZLAR: Oila, g‘oyaviy-siyosiy madaniyat, ijtimoiy, siyosiy, qadriyat, an’ana.

KIRISH

Yoshlar ongida g‘oyaviy-siyosiy madaniyatni shakllantirish, mafkuraviy immunitetni rivojlantirish ijtimoiy masala sifatida e’tirof etilayotgan bugungi kunda, ayniqsa, oilada yoshlar g‘oyaviy-siyosiy madaniyatini shakllantirish tizimini takomillashtirishga innovatsion yondashuvni pedagogik muammo sifatida ilmiy asoslash, uning mazmuni, qurilishining mohiyatini ochib berish, yoshlar bilishi zarur bo‘lgan ma’lumotlarni tanlash, oilada yoshlar g‘oyaviy-siyosiy madaniyatini shakllantirish tizimini takomillashtirishga innovatsion yondashuv darajasini belgilovchi qadriyatlarning mazmuni va o‘ziga xos xususiyatlarini yoritib berish, ushbu innovatsion yondashuvning psixologik, pedagogik jihatlarini o‘rganish, omillari, shartlari va talablarini belgilash, maqbul andozalarini ishlab chiqish va uning samaradorligini tajriba-sinov asosida aniqlash, unga yordam beruvchi ilmiy-pedagogik va metodik tavsiyalar ishlab chiqish, milliy istiqlol g‘oyasi, mustaqillik, yurt tinchligi g‘oyalarini o‘rgatish orqali yosh avlod qalbiga milliy g‘urur, milliy o‘z-o‘zini anglash, milliy ong singari yuksak insoniy fazilatlarni singdirish, yoshlar g‘oyaviy bo‘shliqqa tushib qolmasliklarining oldini olish uchun g‘oyaviy-siyosiy madaniyatning ayrim ijtimoiy-pedagogik jihatlarini maxsus tadqiqot predmeti sifatida o‘rganish va tadqiq qilish bugungi kunda dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Ana shu muammolarni o‘rganish maqsadida 2017 yilning mart oyida Samarqand shahridagi «Mahalla jamg‘arma fond»larining faoliyati bilan tanishib chiqib, mahallalarda istiqomat qilayotgan oilalarda so‘rovnomalar o‘tkazib, «Oilada yoshlar g‘oyaviy-siyosiy madaniyatini shakllantirish tizimiga innovatsion yondashuv jarayoni ota-onalar zimmasiga qanday vazifalarni yuklaydi?» degan savol bilan murojaat qilganimizda ayrim ota-onalarimiz g‘oyaviy-siyosiy madaniyat tushunchasini ma’naviy tadbirlar, ko‘ngilochar kechalar bilan bog‘lab tushuntirishsa, aksariyat ota– onalarimiz o‘z vazifalarini farzandlarining «iqtisodiy» ta’minoti bilan bog‘layotganining guvohi bo‘ldik.

Ta’kidlash joizki, O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov «Yurtimizdagi har bir oila, har bir ota-ona o‘z farzandlari qiyofasida, unib-o‘sib kelayotgan yosh avlod timsolida bilimli, iymon-irodali, mardlik va fidoyilik fazilatlarini namoyon etishga qodir bo‘lgan insonlarni ko‘radi, ularning baxtli-saodatli bo‘lishini orzu qiladi», deya e’tirof etgan. Haqiqatan ham, fan, texnika,

VOLUME 6, ISSUE 1, 2023

texnologiyalar rivojlangan, innovatsion ta'lim tizimi keng qo'llanilayotgan, globallashuv, akcyeleratsiya jarayonlari shiddat bilan kirib kelayotgan, yoshlarimiz fan-texnika yutuqlari, tarixiy voqea va hodisalardan yetarli darajada xabardor, ijtimoiy hayotdagi rivojlanish yoshlar ta'lim-tarbiyasiga o'z ta'sirini o'tkazayotgan bir paytda, bir so'z bilan aytganda, bugungi rivojlanish va taraqqiyot ota-onalarimizga o'z talablari, jumladan, vaqt va iqtisodni bekorga sarf qilmaslik, farzandlarimiz hayoti, ma'naviy dunyosini bugun kechagidan, ertaga bugungidan yaxshiroq qilishga qaratishni talab qilmoqda.

ASOSIY QISM

Mamlakatimizda kechayotgan industrial agrar rivojlanish jarayoni farzandlarimizni bunyodkor g'oyalar ruhiyatida tarbiyalash, isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslik, bolalarimizni zamonaviy bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirib ularga ma'rifat, milliy an'analarimizni tiklash, qadriyatlarimizni hurmatlash, o'z huquq va burchlarini bilish, mustaqil fikrga ega bo'lish, har qanday buzg'unchi g'oya va mafkuralarga qarshi tura olish sifatini tarbiyalashni taqozo etmoqda. Shundan kelib chiqib, oilada yoshlar g'oyaviy-siyosiy madaniyatini shakllantirishda oilaning muqaddasligi, ota-ona va farzand burchi, oilada sog'lom turmush tarzini yaratish, odob-axloq me'yorlari, tejamkorlik, shuningdek, oila a'zolarining o'zaro muomala-munosabatlari, uy tutish va ro'zg'or yuritish, oilada mehnat tarbiyasi, avlodlar zanjirini davom ettirish kabilarga katta ahamiyat berilishi maqsadga muvofiqdir. Eng muhimi, yoshlarga g'oyaviy-siyosiy bilim berish jarayonida fan-texnika yutuqlarini anglab yetib, jamiyat va oila rivojiga o'z hissasini qo'shadigan salohiyatli inson bo'lib yetishish mas'uliyatini ular ongiga singdirish zarur.

Bugungi kundagi o'ta dolzarb hayotiy vazifalardan biri – barkamol rivojlangan shaxsni g'oyaviy-siyosiy jihatdan tarbiyalash, yoshlarning siyosiy madaniyati hamda ularning jamiyat siyosiy hayotidagi faolligini oshirish maqsadida «oila-maktab-mahalla» jamoatchilik tashkilotlari faolligini kuchaytirishni talab etmoqda. Bu borada pedagog-psixologlar, qolaversa, jamiyatning har bir a'zosiga katta mas'uliyat yuklatiladi. Zero, ta'lim-tarbiya bu faqatgina ota-ona yoki murabbiylar ishi emas, balki o'z kelajagiga befarq bo'lmagan, buyuk maqsadlar sari intilayotgan bunyodkor insonlar ishidir. Taniqli pedagog Muhammadjon Quronovning «Mafkuraviy tahdidlar va yoshlar tarbiyasi» kitobida g'oyalar tarixini o'rganish, jahonning bugungi kundagi mafkuraviy manzarasini tahlil qilishga g'oyalar kurashi va mafkuralar raqobati uzluksiz, muntazam davom etishi, ularning bari inson ongi va ong osti qatlamlari, uning qalbi va ruhiga yo'l izlashi, bu kurashda odamlarning ma'naviy hayotini egallagan mafkura g'olib kelishini tasdiqlayotgani e'tirof etilgan bo'lib, geosiyosatda u yoki bu kuchning qo'li ustun kelishi tobora mafkura va ma'naviyat sohasiga bog'liq bo'lib borayotgani aytilgan. Shuning uchun biz yoshlarimizni ma'naviy tanazzul va qashshoqlikdan himoya qilib, g'oyaviy-ma'naviy raqiblarimiz tomonidan axloqsizlik shaxs erkinligi, behayolik demokratiya tantanasi deb targ'ib etilayotgani, o'zligi, o'z ma'naviyati va milliy g'ururini saqlab qolishga bo'lgan intilishlar muxoliflar tomonidan eskilikka yopishish, ozodlikni bo'g'ish, demokratiya taqchilligi deb talqin qilinayotganini singdira olishimiz lozim. Ana shuning uchun ham biz oiladanoq yoshlar g'oyaviy-siyosiy madaniyatini shakllantirish jarayoniga jiddiy yondashsak, oilaning ijtimoiy manfaatlarini ta'minlash, oilada sog'lom psixologik muhit yaratish, oilaning huquqiy savodxonligini oshirish, yoshlarning siyosiy ong, siyosiy tafakkur haqidagi bilimlarini boyitish, siyosiy bilimdonligini oshirish, umuminsoniy va estetik tarbiya, mehnatsevarlik tarbiyasi,

VOLUME 6, ISSUE 1, 2023

milliy g‘oyani singdirish, vatanga muhabbat, haqiqiy do‘stlik, mustahkam e’tiqod, imon, nafosat, axloqiy madaniyat singari fazilatlarni mujassamlashtirishga erishamiz.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

Pedagogika fanlari doktori, professor Oynisa Musurmonovaning «Oila ma’naviyati – milliy g‘urur» nomli o‘quv qo‘llanmasida «Oilaning eng muhim vazifalaridan biri – tarbiya hisoblanadi. Oila-tarbiya maskani....» deyilgan. Darhaqiqat, oilada dunyoga kelgan farzand ota-onadan nafaqat irsiy xususiyatlarni oladi, balki ulardagi xatti-harakat, axloq-odob qoidalarini ham egallab boradi. Shu jihatdan ham yosh avlod g‘oyaviy-siyosiy madaniyatini tarbiyalashda xalqning boy milliy madaniy-tarixiy an’analari, urf-odatlari hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ijtimoiy jarayonni tarkib toptirishda oila muhim ahamiyat kasb etadi. Shaxsni tarbiyalash va voyaga yetkazish, kamol toptirish ustuvorligi oiladan boshlanadi. Bu jihatlarni tarbiyalash, ayniqsa jamiyatimizda yoshlar o‘rtasida bilib-bilmay turib turli oqimlarga (diniy aqidaparastlik, terrorizm) qo‘shilishni o‘ziga «or» deb bilgan, «ommaviy madaniyat» unsurlarini chetlab o‘ta oladigan, o‘z mustaqil g‘oya va e’tiqodiga ega bo‘lgan yangilanish jarayoni davom etayotgan, globallashuv va texnika asri sharoitida madaniy qadriyatlar va milliy boyliklar, tarixiy merosni asrab-avaylaydigan, insonparvarlik, vatanparvarlik, demokratiya tamoyillarini idrok eta oladigan barkamol shaxsni voyaga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta’kidlash joizki, XXI asr dunyoda xavfsiz asr bo‘lib qolmadi. To‘g‘ri, XXI asrda ma’naviy qashshoqlik, mustabid tuzum asoratlaridan qutuldik, deya olamiz, biroq uning o‘rniga «diniy aqidaparastlik», «terrorizm» kabi xavf-xatarlar ro‘yxati yangilandi. Bu xavf-xatarlar yoshlar tarbiyasiga yanada e’tiborliroq bo‘lishni taqozo etayotgani, dunyo tashvishlarini ko‘paytirayotgani sir emas, albatta. Yuqorida qayd etilgan xavf-xatarlarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, yoshlarni «aldov» yo‘llari bilan o‘z ta’sir doirasiga olish siyosati yangi asrda yo‘qolmagan, balki o‘zining pozitsiyasini o‘zgartirgan. Professor M.Quronovning ta’kidlashicha, «Ma’naviyatga chetdan bo‘ladigan salbiy va o‘ta salbiy ta’sirlar bor va bo‘ladi. Yaqin kelajakda bu xavf-xatarlar kamayadi, deb o‘ylash, kamida – soddadillik, rosmana aytganda – jinoyatkorona beparvolik bo‘lar edi». Haqiqatdan ham, tashqi ma’naviy tahdidlarni to‘xtatish uchun biz yoshlar ongida g‘oyaviy-siyosiy madaniyatni shakllantirish tizimini takomillashtirishimiz, chetdan kirayotgan har bir axborotni aql tarozisi bilan o‘lchashga o‘rgatishimiz, yaxshi va yomonni bir-biridan farqlashni tarbiyalashimiz lozim.

Bunday vaziyat esa oilalarni ijtimoiy hayotga uyg‘un qarash muammosini muhim qilib qo‘ymoqda. Chunki aynan oila yosh avlodni shakllantirishga faol ta’sir etadigan ijtimoiy guruh hisoblanadi. G‘oyaviy-siyosiy madaniyatni shakllantirish davr talab-ehtiyojlariga bevosita bog‘liq bo‘lib, g‘oyaviy-siyosiy madaniyat o‘z tarkibida davrga nisbatan ilg‘or fikrlarga, qarashlarga ega bo‘lishi lozim. Aks holda g‘oyaviy-siyosiy madaniyat davr talabi va ehtiyojlarini qondira olmasligi mumkin. G‘oyaviy-siyosiy madaniyatning asosiy belgilari insonning ichki va tashqi dunyosida tafakkur va fikrlar ko‘lami, dunyoqarashiga bog‘liq bo‘ladi.

XULOSA

Asosiy maqsadimiz yoshlar g‘oyaviy-siyosiy madaniyatini shakllantirish tizimini takomillashtirishga erishishimiz, ularda vatanparvarlik tuyg‘usi va milliy g‘ururni shakllantirishimiz, ajdodlarimiz

VOLUME 6, ISSUE 1, 2023

merosiga hurmat, vatani va xalqiga sadoqat, istiqlolimiz qadriga yetish, do‘stlariga g‘amxo‘rlik, fidoyilik tuyg‘ularini tarkib toptirishimiz, g‘oyaviysiyosiy madaniyatni shakllantirishning yangi yo‘llarini izlab topib, hozirgi sharoitda o‘z-o‘zini boshqara oladigan va mustaqil fikrga ega bo‘lgan, har qanday qiyinchiliklardan teran tafakkur bilan chiqishga yo‘l topa oladigan shaxsni tarbiyalash qilib qo‘yilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasining saylangan Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi. // «Xalq so‘zi» gazetasi. 2016 yil 8 dekabr.

2. Karimov I.A. Yoshlar bugungi va ertangi hayotimizning hal qiluvchi kuchidir. - T.: «Ma’naviyat», 2015. -41-b.

3. Musurmonova O. Oila ma’naviyati – milliy g‘urur. - T.: «O‘qituvchi», 1999. –14-b.

4. Quronov M. Mafkuraviy tahdidlar va yoshlar tarbiyasi. – T.: «Akademiya», 2008. -3-4-b.

5. A'zamxonov S.X. Modern concepts of human capita measurement http://farspublishers.org/index.php/ijessh/article/view/1527 Том. 11 № 5 (2023): ФИДЖЕШ

6. A'zamxonov S.X. Inson kapitali bilan bog‘liq tushunchalarning nazariy tahlili https://interonconf.org/index.php/den/article/view/2533 vol. 2 no. 20 (2023): pedagogical sciences and teaching methods 247-254–bet

7. A'zamxonov S.X. Ta’lim jarayonida o‘qituvchi faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari https://bestpublication.org/index.php/iq/article/view/1106 vol. 2 no. 22 (2022): ijodkor o'qituvchi 381-386-bet

8. A'zamxonov S.X. Ta’lim jarayonida o‘qituvchi faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari https://bestpublication.org/index.php/ozf/article/view/1313/1272 vol. 1 no. 12 (2022): o'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali 453-459-bet

9. Аликариев Н.С., Аликариева А.Н. Олий таълим сифати менежменти тизимини ривожлантириш концепцияси//“Социология фанлари” (www.tadqiqot.uz\soci) электрон журнали. №1. – Тошкент, 2020. – Б. 7-18. DOI http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2020-1/

10. Kadirova Y. B. The Advantages of Improving Students' Civic Literacy in Building a Democratic State Governed by the Rule of Law //International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding. – 2021. – Т. 8. – №. 5. – С. 469-473.

11. Isropilov m. b. the role of pr technologies in ensuring the sustainable development of society //Open Access Repository. – 2023. – Т. 4. – №. 2. – С. 729-735.

12. Akhmedova F. Professional Education Pharmaceutical Personnel in Uzbekistan- Eastern European Scientific Journal, 2018

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

VOLUME 6, ISSUE 1, 2023



WORDLY
KNOWLEDGE